

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON: TIL VA MADANIYAT

Lingvistika

2023 Vol. 2 (1)

www.linguistics.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

LINGVISTIKA

2023 Vol. 2 (1)

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Болат Қалыбеков

Қазақ терминологиясының кейбір өзекті мәселелері.....6

Замира Абдужаббарова

Экономия речи в когнитивных и национально-культурных особенностях речевой компетентности в английском и узбекском языках.....27

Marhabo Umurzoqova

Personaj lisoniy shaxsida yosh xususiyatlarining namoyon bo'lishi36

Iqbol O'razova

Mental leksikonda so'zlarning saqlanishi.....44

Dilfuza Shonazarova

Diskurs tahlilning o'ziga xos xususiyatlari57

Sherzod Atamuradov

O'zbek va turk tillarida pragmatik to'siqni yuzaga keltiruvchi lisoniy omillar66

Mahliyoxon Tuxtasinova

L. Budagovning "Сравнительный словарь турецко-татарских наречий" lug'ati uchun asos bo'lgan manbalar.....88

Lobar Qambarova

Tilshunoslikda afaziya tasnifi112

Go'zal Mirzayeva

O'zbek va turk tillaridagi singarmonizm hodisasining qiyosiy tahlili.....125

Kamola Abdulloyeva

Tasviriy ifodalarning muallif modalligini aks ettirishdagi ahamiyati..... 132

Xayriniso Mamirova

So'z ma'nosini o'zlashtirishining gender va yosh xususiyatlari bilan bog'liqligi...144

Nafisa Arolova

Til ta'limida o'quvchilarning kognitiv malakasini oshirishga qaratilgan metodlar157

Shirinoy Muhsinjonova

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida sut mahsulotlariga doir leksemalarning aks ettirilishi171

Qudratillo Bakirov

"Devonu lug'otit-turk"da qo'llangan vaqtni nomlovchi leksik birliklarning hozirgi turkiy tillar iste'mol qatlamidagi o'rne.....181

CONTENT

Linguistics

Bolat Kalybekov

Some specific issues of Kazakh terminology6

Zamira Abdujabbarova

Speech economy in cognitive and socio-cultural aspects of speech competence in English and Uzbek languages27

Markhabo Umurzakova

Appearance of age characteristics in the linguistic personality of the character ...36

Ikbol Urazova

Preservation of words in the mental lexicon44

Dilfuza Shonazarova

Peculiarities of discourse analysis57

Sherzod Atamuradov

Linguistic factors that create a pragmatic barrier in uzbek and turkish languages66

Mahliyoxon Tuxtasinova

Sources that are the basis for the dictionary “Sravnitelnyy slovar turetsko-tatarskikh narechiy” by L. Budagov.88

Lobar Kambarova

Classification of aphasia in linguistics112

Go’zal Mirzayeva

Comparative analysis of the phenomenon of synharmonism in Uzbek and Turkish languages125

Kamola Abdulloyeva

The importance of figurative expressions in reflecting the author’s modality132

Xayriniso Mamirova

Relationship of word meaning acquisition with gender and age characteristics.144

Nafisa Arolova

Methods aimed at improving the cognitive skills of students in language education.....157

Shirinoy Muhsinjonova

Representation of lexemes related to milk products in Mahmud Koshgari’s work “Devonu lugotit-turk”171

Kudratillo Bakirov

The use of tense lexemes used in “Devonu lugatit-turk” in modern Turkic languages181

Tasviriy ifodalarning muallif modalligini aks ettirishdagi ahamiyati

Kamola Abdulloyeva¹

Abstrakt

Badiiy asarda muallif modalligining aks ettirilishida eng muhim omillardan biri sifatida tasviriy ifodalar alohida ahamiyatga ega sanaladi. Muallif mushohadasi prizmasi orqali qahramonlarning ruhiy olamini ochib beruvchi portret, peyzaj, interyer kabi badiiy matnning tarkibiy qismlari asar personajlarini tavsiflabgina qolmay, balki muallif modalligi, diskursiv shaxsi va ichki olamini aks ettirish vazifasini ham bajaradi.

Kalit soʻzlar: *muallif modalligi, badiiy portret, diskursiv shaxs, tasviriy ifodalar.*

Badiiy nutqni antroposentrizm nuqtayi nazaridan koʻrib chiqish asnosida shuni taʼkidlash kerakki, antropomorfizatsiya badiiy matnda antroposentrizmning asosiy tamoyillaridan biri sifatida keng qoʻllaniladi. Badiiy matn namunasini tahlil qilishda uning stilistik xususiyatiga alohida eʼtibor qaratish muhim sanaladi. Tahlil qilingan parchada foydalanilgan stilistik hamda tilga oid boʻlgan vositalar estetik vazifani bajarish bilan bir qatorda muallif modalligini ifodalovchi funksiyani ham amalga oshiradi.

Muallif modalligini ifodalovchi, strukturaviy-semantik va leksik jihatdan ahamiyati beqiyos hisoblanuvchi til birliklari badiiy asarda pragmatik xarakterga ega boʻlib, voqea joyini koʻrsatibgina qolmay, asarning oʻziga xosligi hamda qiymatini belgilashda ham muhim hisoblanadi [Хализев 1999]

Darhaqiqat, badiiy matndagi portret muallif diskursiv shaxsi orqali ifodalanuvchi dunyo tasvirini aks ettiruvchi elementlardan biri sanaladi. Hozirgi kunga qadar koʻpgina taqdiqotlarda badiiy butunlikning ajralmas qismi boʻlgan portretning qanchalik murakkab tuzilma ekanligini atroflicha tahlil qilingan. Peyzaj va portret uygʻunlikda badiiy asarning kompozitsion-nutqiy shakllaridan biri sifatida qahramonlar hamda sujetni tasvirlashda muhim rol oʻynaydi. V.A.Kuxarenkoning fikricha, qahramon shaxsining tashqi

¹ Kamola Abdulloyeva – Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

Iqtibos uchun: Abdulloyeva, K. "Tasviriy ifodalarning muallif modalligini aks ettirishdagi ahamiyati". *Oʻzbekiston: til va madaniyat. Lingvistika*. 2023-2:132-143.

belgilarini (kiyim, soch turmagi, xulq-atvor va boshqalar) o'z ichiga olgan badiiy portret qahramonlar xarakteri va o'ziga xosliklarini aks ettiruvchi eng muhim vositalardan biri sanaladi.

Lingvistik tadqiqotlarning hozirgi bosqichida "portret" atamasini ikki yoqlama tushunish mumkin, dastlab, qahramonlarning tashqi ko'rinishini tasvirlash orqali ularning badiiy xususiyatlari vositasi va ikkinchidan, "shaxsga xos bo'lgan tashqi va ichki yaxlitlik" sifatida tahlil qilingan [Акбаева 2005]. Xususan, lingvistik adabiyotda xilma-xil tasvirlanuvchi badiiy portret tipologiyasi muammosiga katta e'tibor beriladi. O'zbek tilining izohli lug'atida ta'riflanishicha, "Adabiy portret – adabiy asarda personajlar qiyofasining tasviri va tavsifi" hisoblanadi. Boshqa bir manbaada esa "ijodkor portret yaratishda yuz, ko'z, qosh, lab, burun kabi a'zolari tasvirlash bilan chekanmay, gavda, qo'l, bosh harakatlari, gapirish ohangi va surati, kulishi, yig'lashi kabi inson ruhiyati bilan bog'liq faoliyatlarga ham katta e'tibor qaratadi", degan fikr qayd etiladi [Salayev, Qurboniyozov 2010].

Shuningdek, portret adabiy qahramonning tashqi qiyofasi, ko'rinishi, kiyim-kechagi, xatti-harakati, o'zini tutishi uning badiiy asarda aks etuvchi tasviri hisoblanib, adabiy qahramonning tashqi ko'rinishini tasvirlash orqali uning xarakter xususiyatlarini ochishga ham xizmat qiluvchi vositalardan biri hamdir. Mahoratli yozuvchi tomonidan tasvirlangan portretlar esa inson obrazini yorqinlashtirish, ruhiy tadqiq etish vositasiga aylanishi mumkin. Badiiy obrazga aloqador bo'lgan portretga xos tavsifni shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin: qahramonning tashqi qiyofasi tasviri hamda har bir qahramonga xos bo'lgan psixologik tasvir; garchi ushbu tasnif obrazning bir-biriga o'xshamagan ikki jihatini aks ettirishga xoslangan bo'lsa-da, yozuvchi har ikki holatda ham asarda ishtirok etuvchi qahramonlarning ruhiy holati hamda ichki dunyosini namoyon etuvchi uslubiy jihatdan sayqallangan vositalar orqali aks ettiradi.

Portretni kognitiv tahlil qilar ekanmiz, bu mavzu uning tasnif ko'lamini izchil o'rganishni taqozo etadi. Shuni ta'kidlash joizki, ko'plab tadqiqotlarda eng ko'p uchraydigan badiiy portret turlari quyidagilar:

- yoyiq portret aynan bir qahramonning tashqi ko'rinishiga xos bo'lgan bir qancha xususiyatlarni aks ettirib, vaziyatga bog'liq holda o'zgarishi, badiiy asar sujetiga mos tarzda yangi xususiyatlarga ega bo'lib borishi mumkin;

- statik portret – qahramonga xos bo'lgan umumlashtirilgan

portret bo'lib, unga tegishli xususiyatlar sifat jihatidan aniqligi va o'zgarmasligi nuqtayi nazaridan tavsiflanadi. Shuningdek, u ixcham tuzilishga egaligi bilan xarakterlanib, makon va zamonga oid buyumlar, belgilarga moslashgan bo'ladi.

- dinamik badiiy portret qahramonga xos bo'lgan tashqi ko'rinishning tavsifi hisoblanib, xulq-atvori bilan birga xarakter, shu jumladan, o'zini tutish, yuz ifodasi, mimikalar, imo-ishoralar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

O'zbek adabiyotida Murod Mansur qalamiga mansub asarlar matnini tahlil qila turib muallif obrazlar portretini qahramon xarakteri bilan birgalikda bir-biriga uzviy bog'liq tarzda yoritib berishining guvohi bo'lamiz. U ba'zi vaziyatlarda qahramonlar portretini to'la tasvirlamaydi, balki qisqa, ayrim hollarda asar qahramonlari tili, nigohi bilan berishdan keng foydalanadi:

"... Yostiqlik izi tushib qolgan cho'ziq yuzini ishqab, kerishdi. Sultonmurod akamning kelbati, chavandozlarnikidek edi. Chayir qiyg'ir burunli. Labining ustidagi kalta mo'ylovi bir yarashibdi. Shu turishda to'n kiyib, chakkasini durra bilan tang'ib olsami, ulochining o'zi. Lekin hozir shaharcha kiyingan, ustiga-ustak boshyalang, sochlari jingalak edi. Egnida hali ham bu tomonlarda rasm bo'lmagan iroqi gulli yoqasiz ko'ylak. Ipak bog'ichlari bir chiroyli. O'rnidan turib, bo'yi shiftga yetgudek bo'lib yana kerishgan edi, kuraklari shiqirlab ketdi".

Yuqoridagi ifodada asar qahramoni Sultonmurodga tegishli xususiyatlar sifat jihatidan aniq tavsiflangan hamda ixcham tuzilishga ega. Shuningdek, uni xarakter jihatdan portretning **statik** turiga mansubligini aytib o'tish mumkin. Ushbu jumalalarda qahramonga oid birorta nuqson yoki kamchiliklarni ko'rsatmay, balki, Sultonmurod qiyofasi, yuz tuzilishining chiroyi, kelbati rasoligi, ya'ni, jismoniy jihatdan kuchlilikini tasvirlagani hamda dovyurak ulochi, qo'rqmas chavandozga qiyoslash orqali **o'xshatish** ("simile") – "*kelbati chavandozlarnikidek*", "*ulochining o'zi*", badiiy matndagi hissiy bo'yoqdorlikni oshirish maqsadida **sifatlash** (epitet) – "*Chayir qiyg'ir burunli*", "*rasm bo'lmagan iroqi gulli yoqasiz ko'ylak*", shuningdek muallif ifodalamoqchi bo'lgan mazmunni kitobxonga uqtirish, ta'kidlash maqsadida **ma'no kuchaytirish** – "*chakkasini durra bilan tang'ib olsami, ulochining o'zi*" "*bir chiroyli*" hamda taqlid so'zlardan foydalanish (onomatopoeia) – "*shiqirlab*" tufayli ijodkor Murod Mansurga xos yozuvchilik mahoratini his qilish mumkin. Chunonchi, yuqorida qayd etib o'tilgan vositalar nafaqat asardagi izchillikni ta'minlash, balki muallif konseptual dunyo manzarasi tasvirini namoyon etishga ham xizmat qilganini ko'rish mumkin.

Darvoqe, yozuvchi “Judolik diyori” romanida bir qancha personajlar voqealar rivoji davomida faol ishtirok etadilar, ularni bir-biriga o‘xshamagan portret tasviri va xarakter ifodasi orqali farqlash mumkin. Asardagi asosiy obrazlardan yana biri – Salomxon aya obrazi bo‘lib, u – Maqsudxo‘janing onasi va Sultonmurod uning jiyani sifatida tasvirlangan. Bu obraz romanda oqila, mulohazakor, sabrli, mehribon shu bilan birga qat’iyatli ayol obrazini gavdalandiradi.

Asarda Salomxon ayaning tashqi ko‘rinishiga, portretiga deyarli ta’rif berilmagan bo‘lsa-da, gap ohanglari, ruhiy munosabatlar orqali yuzida aks etadigan o‘zgarishlar tasviri vositasida qahramon xarakterini ochib beradi. Yozuvchi qahramonlarining portretini rang-barang qilib ko‘rsatishda yumordan unumli foydalanadi:

“Hay, Sultonmurod, san esingni yig‘ib ol. Ko‘pam bu kashmirilarning qiziga aylanishaverma.

Akam hoholab kuldi, kulib yengmoqchi bo‘ldi.

– Voy, xola-yey! Juda ajoyibsiz-da! Har bitta begona kashmiri bo‘lavursa, sog‘i kim qoladi?!

– San kulma, bular shunday ustaki, ko‘zingga qarab turib, avrab qo‘yganini bilmay qolasan.

– Ko‘zingga qarab turib deng-a?

– Ha, qarab turib duosini o‘qisa tamomsan. Oyisining parilari borligini, childirma chalib odam o‘qishini bilmaysanmi?

– Bilaman, dedi akam, o‘sha-o‘sha kulib.

– Bilsang nimaga kulyapsan?

– Hamma qatori bir qiz-ku.

– Ho-o, dedilar oyim cho‘zib, – hamma qatori ekanmi, voy tavba-yey?”

Ushbu parchadagi Salomxon aya tomonidan aytilgan–*“Ko‘pam bu kashmirilarning qiziga aylanishaverma”, “ko‘zingga qarab turib, avrab qo‘yganini bilmay qolasan”, “Oyisining parilari”* kabi jumalardan uning qanchalik sodda va beg‘uborligini osongina anglab olish mumkin.

Murod Mansur o‘ziga xos portret yaratish usuliga ega yozuvchi bo‘lib, asarlarida ishtirok etuvchi obrazlarni rang-barang qilib ko‘rsatishda ruhiy unsurlardan ham unumli foydalanishga harakat qilishini kuzatish mumkin; shu orqali qahramonlar portretini yaratgan holda ularning xarakteridagi xususiyatlarni ochib beradi. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, nafaqat qahramonlarning tashqi qiyofasi, balki ularning ichki dunyosini ham o‘ziga xos detallar vositasida mahorat bilan tasvirlanishi asar ta’sirchanligini yanada orttirishga xizmat qiladi. Muallif o‘z asarlarida ayol obrazi portretini

yaratganida, qahramonlarning deyarli barchasiga samimiyat, ochiq ko'ngillilik, mehnatsevarlik, mehr-oqibatlilik tuyg'ularini chuqur singdiradi. Jumladan, "Judolik diyori" asaridagi Hidoy xolani ochiq ko'ngil, nurli ayol sifatida tasvirlashda metafora – "*nur yog'ilib turadi*", hurmat, shu bilan birga ma'no kuchaytirish hamda ta'kid ma'nosini ifodalash maqsadida otlarni ko'plik shaklda qo'llaydi – "*yuzlaridan, vujudlaridan, quchoqlariga, bag'irlariga*" shaklida:

"Oq sariqdan kelgan yuzlaridan hamisha nur yog'ilib turadi, vujudlaridan qalampirmunchoq hidi anqib, quchoqlariga olganda, bag'irlariga singib ketgig kelaveradi odam. Bir chiroyli kamzullar, nimchalar tikadilar».

Bunday farqli o'laroq, ingliz adabiyotidagi asarlarning aksariyatida muallif personajlar obrazini tasvirlashda ko'pincha neytrallik bilan yondoshishini kuzatish mumkin. Xususan, quyidagi misol mohir yozuvchi tomonidan amalga oshiriladigan ijodkorlik xususiyatining yaqqol namunasi deyish mumkin.

With the upstairs apartment she had been less successful. The upstairs had had a new tenant every year or so: a cellist who had just been hired to teach at the Institute of Music; a divorcée in her forties; a young newlywed couple fresh out of Cleveland State. Each of them had deserved a little booster, as she'd begun to think of it. But none of them stayed long. The cellist, denied first chair in the Cleveland Orchestra, left the city in a cloud of bitterness. The divorcée remarried after a whirlwind four-month romance and moved with her new husband to a brand-new McMansion in Lakewood. And the young couple, who had seemed so sincere, so devoted, and so deeply in love, had quarreled irreparably and separated after a mere eighteen months, leaving a broken lease, some shattered vases, and three cracked spots in the wall, head-high, where those vases had shattered. ("Little Fires Everywhere" by Celeste Ng)

Yuqorida keltirilgan parchada personajlarni tasvirlashda bir qancha stilistik vositalardan foydalanilgan bo'lib, xususan, sifatlash (epithet) ni alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Jumladan, asardagi xonadon egasinikiga muayyan muddat yashashga kelgan ijarachilarning ijtimoiy-hissiy holatlarini – *a young newlywed couple*, *brand-new McMansion*, shuningdek cholg'uchining pushaymonlik holatini aks ettirish uchun foydalanilgan *a cloud of bitterness* jumlasida ham **sifatlash**, ham **metaforani** kuzatsak, *a whirlwind four-month romance* da **sifatlash** orqali **mubolag'a** (hyperbole) dan ham foydalanilganini guvohi bo'lish mumkin. Bundan tashqari ikkinchi qavatda ijarachi bo'lgan yosh juftlikning holatini dastlab **darajalash**

(gradation) orqali “*so sincere, so devoted, and so deeply in love*” tarzida ijobiy tasvirlagan bo’lsa, keying munosabatlaridagi holatda ro’y bergan ko’ngilsizliklarni aks ettirish orqali matn ichida mazmuniy **qarshilantirish**dan foydalanilgan. Mazkur badiiy matnda mazmuniy qarshilantirishga yana bir misol sifatida *Each of them.. But none of them..* strukturasini aytib o’tish mumkin. Shu bilan birga muallif bir turkumga kirmaydigan: *leaving a broken lease, some shattered vases, and three cracked spots in the wall* so’zlarni bir qatorga terish orqali so’z o’yiniga xos muayyan hodisa (**zeugma**)ni yuzaga keltirish bilan birga ularning hayotidagi yuz bergan ko’ngilsiz hodisalarga ramziy ishora qilishni ham maqsad qilganini payqash qiyin emas. Ushbu qatorni davom ettirib so’zlarni o’rnini o’zgartirib qo’llash orqali yana bir stilistik (takrir –repetition) vositadan foydalanganini uchratish mumkin: *some shattered vases, ...those vases had shattered* tarzida.

Shunisi ahamiyatliki, Murod Mansur asarlaridagi qahramonlar xarakteriga ko’ngilchanlik, samimiylik, oqibatlilik kabi xususiyatlarni kuzatish mumkin bo’lsa, Tog’ay Murod o’z asarlaridagi obrazlarda soddalik, oddiylik hamda vafodorlik fazilatlarini yaqqol ko’zga tashlanadi:

Birodarlar, bizning Surxonda mana shunday gap bor: ot olsang, Oboqlidan ol, ayol olsang, Irg’alidan ol!

Buning mag’zi shuki, ot deganlari dev! Ot bepoyonlikni deydi. Ot masofa nimaligini bilmaydi, hudud nimaligini bilmaydi. Ot qahraton qishda-da dasht-biyobonlarda chopib o’sadi. Ana shunda dirkillagan ot bo’ladi! Qo’ltiqlari cho’ziladi. Ko’kraklari enlik bo’ladi! Uchqur keladi! Bedov ot bo’ladi!

Oboqli ana shunday dasht!

Irg’ali deganida qiz bor! Irg’alining qizlari zuvalasi pishiq bo’ladi. Kiymagani yettinchi kalish kiyadi! Barining beli baquvvat, bo’limli bo’ladi. Irg’alining qizlarini quchoqlasa, qo’yin to’ladi! Irg’alining qizlari ko’rgan farzand-da alpomishkelbat bo’ladi. Boisi, Alpomish ayni shu Irg’alida o’tgan-da!

Ana, bildingizmi, elning gapi qayoqqa borayapti?

Yuqoridagi “Ot kishnagan oqshom” asaridan olingan parchada qizlar tasvirini aks ettirishda foydalanilgan vositalar nafaqat ma’no kuchaytirishga, balki asar bo’yoqdorligini oshirishga xizmat qilgan.

Muallifning badiiy matnda ifodalangan holatga munosabatining aksi o’laroq unda muallifning ichki ruhiy holati va tuyg’ulari ham ifodalanadi, deyish mumkin.

The more time they spent together, the more Moody began to feel he was in two places at once. At any given moment—every

moment he could arrange, in fact—he was there with Pearl, in the booth at the diner, in the fork of a tree, watching her big eyes drink in everything around them as if she were ferociously thirsty. He would crack dumb jokes and tell stories and dredge up bits of trivia, anything to make her smile. And at the same time, in his mind, he was roaming the city, searching desperately for the next place he could take her, the next wonder of suburban Cleveland he could display, because when he ran out of places to show her, he was sure, she would disappear. Already he thought he saw her growing silent over their fries, prodding the last congealed lump of cheese on the plate; already he was sure her eyes were drifting across the lake to the far shore. (“Little Fires Everywhere” by Celeste Ng)

Ushbu asardan olingan parchada asar qahramonining ichki kechinmalarini aks ettirish asnosida qator stilistik unsurlar, xususan, bir jumlada **o'xshatish** va **mubolag'a** (*as if she were ferociously thirsty*), **metafora** (*the fork of a tree*), **takrir** (*the next place, the next wonder*), **shaxslantirish** (*her eyes were drifting*), **ma'no kuchaytirish** va **takrir** bir ifoda vositasida (*any given moment – every moment*), **sifatlash** (*the last congealed lump of cheese*) kabilarni kuzatish mumkin. Yuqoridagi til vositalari orqali muallif kitobxonga asar qahramoni Moody yoqtirib qolgan personaji Pearl bilan birgalikda ko'proq vaqt o'tkazish uchun qanchalik qayg'urayotganini, uni qo'yarga joy topolmasdan Pearl uchun hamma narsaga tayyorligini yetkazishni maqsad qilganligini anglash mumkin.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida Ulug'bek Hamdam ham o'ziga xos, yo'nalish hamda o'zgacha tasvirlash uslubiga ega bo'lib asarlaridagi obrazlar portetini san'atkorona tasvirlay olganini birga “So'z” asarini tahlil qilish orqali bilib olishimiz mumkin.


Suv bo'yiga kelishgach, er sarg'ayibroq qolgan o't-o'lanni qayirib, uydan olvolgan to'shakchani to'shadi-da, “marhamat qilsinlar!” deya iltifot ko'rsatdi. Xotin avaylanib o'tirib bo'lgach esa er uning qo'lini tutgancha yoniga cho'kdi.... Ko'ngillarga andak kuzsimon hazinlik inganda esa erkak ayol barmoqlarni birin-sirin labiga olib borib o'pdi. Keyin engashib, ayolning farangi atir anqib turgan bo'ynini dudoqlari bilan erkaladi. Ayol qiqir-qiqir kuldi. Erning zavqi oshdi... “Jiming! Osh nima bo'ldi?” - ayol ildam o'rnidan turdi. “Qo'yaber, nima bo'lsa bo'lar” - erkak ayolni yana bag'riga olmoqchi bo'ldi.

Yuqoridagi parcha orqali bosh qahramon ayoliga nisbatan qanchalik muhabbati kuchliligini, mehribonligini, o'z turmushidan qay darajada mamnun ekanligini muayyan harakatlaridan (*iltifot ko'rsatdi, o'pdi, erkaladi, zavqi oshdi, yana bag'riga olmoqchi bo'ldi*)

bilib olish mumkin. Ammo asar oxirida ushbu obrazga nisbatan aks ettirilgan avvalgisidan butunlay zid bo'lgan, o'zgaruvchan portret tasviri tufayli uni **dinamik portret** namunasi deyishimiz mumkin:

Er eshik dastasini tutgan ko'yi haykaldek qotdi. Allabir zamondan keyingina uni qo'yvorib, ortga chekindi. Garangsirab qozonning boshiga bordi. Nima qilarini bilmay, g'ayriixtiyoriy ravishda atrofida aylana boshladi. Xuddi xayolida aylanayotgan o'sha bir juft so'z kabi. Bu so'zlar esa xonaga kirib qolgan bir juft xira pashshani eslatardi: miyaning ichida tinimsiz g'ing'illardi: BEMA'NI KUN! BEMA'NI KUN! BEMA'NI KUN!.. G'IIING, G'IIING, G'IIING...

Ushbu asardan keltirilgan bo'lakda avvalgisidan butunlay farqli o'laroq erkakni parishonxotir, tushkunlikka tushgan tarzda tasvirlanadi va bunda yozuvchi bir qancha **metaforalar** (*qozonning boshi, miyaning ichi, bema'ni kun*), ma'noni kuchaytirish mazmunni ta'kidlash maqsadida **o'xshatish** (*haykaldek, xuddi xayolida aylanayotgan o'sha bir juft so'z kabi*), mazmuniy bo'yoqdorlikni ta'minlash, jonli tasavvurni vujudga keltirishga xizmat qiluvchi **sifatlash** (*xira pashsha*) dan ustalik bilan foydalana olganini guvohi bo'lamiz. Shuningdek, badiiy asardagi ayni vaziyat qanchalik dilxiralikka sabab bo'lganini izohlash, tavsiflash maqsadida **takrir** (repetition) (*BEMA'NI KUN! BEMA'NI KUN! BEMA'NI KUN!.. G'IIING, G'IIING, G'IIING*) kabi badiiy vositalardan foydalangan holda qahramon portretini tasvirlab beradi. Aynan shu birliklar vositasida uning ichki kechinmalari, tuyg'ularini kitobxonga yetkazishni maqsad qiladi.



Later it would seem to Pearl that the Richardsons must have arranged themselves into a tableau for her enjoyment, for surely they could not always exist in this state of domestic perfection. There was Mrs. Richardson in the kitchen making cookies, of all things—something her own mother never did, though if Pearl begged hard she would sometimes buy a log of shrink-wrapped dough for them to slice into rounds. There was Mr. Richardson, a miniature out on the wide green lawn, deftly shaking charcoal into a shining silver grill. There was Trip, lounging on the long wraparound sectional, impossibly handsome, one arm slung along the back as if waiting for some lucky girl to come and sit beside him. And there was Lexie, across from him in a pool of sunlight, turning her luminous eyes from the television

toward Pearl as she came into the room, saying, "Well now, and who do we have here?" ("Little Fires Everywhere" by Celeste Ng)

Ushbu parchada **mubolag'a** (*impossibly handsome*), **sifatlash** (*a shining silver grill, luminous eyes*), **o'xshatish** (*as if waiting for some lucky girl to come*), **metafora** (*a pool of sunlight*), **shaxslantirish** (*a shining grill*) kabi stilistik vositalardan personajlar holatini tasvirlashda foydalangan. Shuningdek, sinchikovlik bilan nazar solinsa, *a miniature out on the wide green lawn* jumlasida mohirona qo'llangan **istiorani** ham ilg'ab olish qiyin emas, chunonchi muallif o'z personajini zimdan chizilgan suratga qiyoslashga harakat qilganini anglash mumkin.

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillar asosida uyidagi xulosalarni hosil qilish mumkin:

badiiy portret ikki darajali tuzilishga ega bo'lib,; tashqi (yuzaki) - xarakterning tashqi xususiyatlarini aks ettiruvchi, yashirin (ichki) - xarakterning ichki ruhiy dunyosini aks ettirish xususiyatiga ega bo'ladi;

badiiy portretning lingvistik va konseptual tuzilmalar o'rtasidagi muqobillikka asoslangan turi portretning chuqur semantikasini ochib berishga hamda muallifga xos munosabatni ifodalashga qaratilgan bo'ladi;

ikki semantik maydon – insonning tashqi va ichki ruhiy dunyosi badiiy portretning psixologik xususiyatlarida alohida ahamiyat kasb etadi;

badiiy portret stilistik belgilar vositasida ifodalanganlik bilan xarakterlanib, ilgari surish tamoyillaridan biri sifatida qaraladi.

Badiiy matnda muallifning o'ziga xosligini ajratib ko'rsatuvchi bir qancha unsurlar mavjud sanaladi. Xususan, adabiy portret va stilistik vositalar orqali ifodalangan tasviriy kontekstlar muallif diskursiv shaxsini namoyish etuvchi (reprezentatsiyalovchi) til vositalaridan bo'lib, ular muallifga xos subyektiv modallik yoki munosabat ham maqsad va g'oyalarni ifodalashga xizmat qiladi. Bundan tashqari shuni unutmashlik zarurki, badiiy asarda namoyon bo'luvchi tasviriy parchalarning o'ziga xos xususiyati stilistik va tasviriy vositalarning keng qo'llanilishida aks etuvchi stilistik markerlanganlik xususiyatida ham ko'rinadi. Shuningdek, badiiy matnda namoyon bo'luvchi ifodalilik, emotivlik yoki ta'sirchanlik, obrazlilik va baholash xususiyatiga xos bo'lgan stilistik markirlanganlik muallifning subyektiv modalligini, uning tilga oid yaratuvchanlikni aks ettirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

- Celeste, N. 2017. *Little Fires Everywhere*. New York.
- Salayev, F., Qurboniyozov, G. 2010. *Adabiyotshunoslik atamalarining izohligi soʻzligi*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
- Togʻay Murod. 2020. *Ot kishnagan oqshom*. Toshkent: Ziyο nashr.
- Ulugʻbek Hamdam. 2013. *Soʻz*.
- Акбаров, С.А. 2005. *Лингвостилистические средства и когнитивнопрагматическая значимость художественного портрета (на материале английских художественных текстов): Автореф. дисс... канд. филол. наук. Ташкент*.
- Арнольд, И.В. 1981. *Стилистика современного английского языка. Стилистика декодирования*. Л.: Просвещение.
- Кухаренко, В.А. 1988. *Интерпретация художественного текста*. М.: Просвещение.
- Сафаров, Ш.С. 2006. *Когнитив тилишунослик*. Жиззах: Сангзор нашриёти,
- Серебренников, Б.А. 1988. *Как происходит отражение картины мира в языке/ Роль человеческого фактора в языке: язык и картина мира*. М.: Наука.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2006. Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, I, V том.
- Хализев, В.Е. 1999. *Теория литературы*. М.: Азбуковник.

The importance of figurative expressions in reflecting the author's modality

Kamola Abdulloyeva¹

Abstract

As one of the most important factors in the reflection of the author's modality in a work of art, pictorial expressions are of particular importance. The components of the artistic text, such as portraits, landscapes, interiors, which reveal the spiritual world of the characters through the prism of the author's observation, not only describe the characters of the work, but also reflect the author's modality, discursive personality and inner world.

Key words: *author's modality, literary portrait, discursive personality, figurative expressions.*

¹ Kamola Abdulloyeva – Doctoral student of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

For reference: Abdulloyeva, K. "The importance of figurative expressions in reflecting the author's modality". *Uzbekistan: language and culture. Linguistics*. 2023-2: 132-143.

References

- Celeste, N. 2017. *Little Fires Everywhere*. New York.
- Salayev, F., Qurboniyozov, G. 2010. *Adabiyotshunoslik atamalarining izohligi soʻzligi*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
- Togʻay Murod. 2020. *Ot kishnagan oqshom*. Toshkent: Ziyο nashr.
- Ulugʻbek Hamdam. 2013. *Soʻz*.
- Акбарова, С.А. 2005. *Лингвостилистические средства и когнитивнопрагматическая значимость художественного портрета (на материале английских художественных текстов): Автореф. дисс... канд. филол. наук*. Ташкент.
- Арнольд, И.В. 1981. *Стилистика современного английского языка. Стилистика декодирования*. Л.: Просвещение.
- Кухаренко, В.А. 1988. *Интерпретация художественного текста*. М.: Просвещение.
- Сафаров, Ш.С. 2006. *Когнитив тилишунослик*. Жиззах: Сангзор нашриёти,
- Серебренников, Б.А. 1988. *Как происходит отражение картины мира в языке/ Роль человеческого фактора в языке: язык и картина мира*. М.: Наука.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2006. Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, I, V том.
- Хализев, В.Е. 1999. *Теория литературы*. М.: Азбуковник.